

SAMARQAND VILOYATIDA ZIYORAT TURIZMINING TARIXI VA ISTIQBOLLARI

Turdiyev Madiyor Mamanazarovich

Chirchiq davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Samarqand viloyatida ziyorat turizmining tarixi va istiqbollari yoritilgan. Ziyorat turizmini rivojantirish uchun qilingan va qilinayotgan ishlar to'g'risida so'z yuritilgan va ushbu turizm yo'nalishini yanada rivojlantirish uchun takliflar keltirilgan.

Kalit so'zlar: ziyorat, turizm, Samarqand, turist, ziyoratgoh, madaniyat

ИСТОРИЯ И ПЕРСПЕКТИВЫ ПАЛОМНИЧЕСКОГО ТУРИЗМА В САМАРКАНДСКОЙ ОБЛАСТИ

Аннотация. В данной статье рассказывается об истории и перспективах развития паломнического туризма в Самаркандской области. Были обсуждены проделанные и проводимые работы по развитию паломнического туризма и внесены предложения по дальнейшему совершенствованию этого туристического направления.

Ключевые слова: Паломничество, туризм, Самарканда, турист, святыня, культура

HISTORY AND PROSPECTS OF PILGRIMAGE TOURISM IN SAMARKAND REGION

Abstract: This article describes the history and prospects of pilgrimage tourism in Samarkand region. The works done and being done for the development of pilgrimage tourism were discussed and suggestions were made for the further improvement of this tourism direction.

Key words: Pilgrimage, tourism, Samarkand, tourist, shrine, culture

KIRISH

Hozirgi davrda turizmni rivojlantirish har bir davlat taraqqiyotining asosi hisoblanadi. Shuning uchun davlatimiz mustaqillikka erishgach bu sohaga alohida e'tibor bera boshladi. Mamlakatda turizmni jadal rivojlantirish, mavjud ulkan turizm salohiyatidan yanada to'liq va samarali foydalanish, an'anaviy, madaniy-tarixiy turizm bilan birgalikda turizmning boshqa salohiyatli turlarini - ziyorat qilish, ekologik, gastronomik, sport, davolash-sog'lomlashtirish va boshqa turlarini jadal rivojlantirish hisobiga turizmning ijtimoiy ahamiyatini kuchaytirdi. Misol tariqasida, Prezidentimizning "O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida" gi farmoni, hamda 2017-yil 16-avgustdaggi 2018-2019-yillarda turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha

birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida" gi qarori bu boradagi ishlarni yangi bosqichga ko'tardi

ADABIYOTLAR TAHЛИLI VA METODOLOGIYA

Dunyo miqyosida turizmning ekstremal, gastronomik, ta'lim, sport, berd votching, tibbiyat, MICE, ziyorat, tog' turizmi, eko va agroturizm, enoturizm kabi 63 turi mavjud bo'lib, O'zbekistonda ularning deyarli barchasini rivojlantirish imkoniyatlari bor. Ayniqsa, ziyorat turizmining imkoniyatlari keng, xususan, respublikamizda mavjud 8 mingdan ziyod madaniy meros obyektlaridan 1257 tasi ziyoratgohlar hisoblanadi.

Ziyorat turizmi Vatanimizning deyarli barcha viloyatlarida o'z rivojlanish imkoniyatlariga ega, ayniqsa, Samarcand viloyatida ushbu turizm yuksak taraqqiy etgan. Chunki Samarcandda ko'plab tarixiy inshootlar va ziyoratgohlar mavjud va ular jahon turistlarini o'ziga jalb qilib kelmoqda. Endilikda Samarcandni O'zbekistonning "Turizm darvozasiga aylantirish va kelajakda sayyohlik xizmatlari hajmini 10 barobarga oshirish mo'ljallanmoqda. Bu borada Prezidentning 2022-yil 24-dekabrdagi "Samarcand viloyatining turizm va transport salohiyatidan samarali foydalanish, viloyatni " Samarcand - Yangi O'zbekistonning turizm darvozasi" konsepsiysi asosida rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi qarori muhim dasturilamal bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 25-fevraldagagi 133-f- sonli Farmoyishiga asosan 2019-yil 24-25-may kunlari Samarcandda Xitoy, Rossiya, Fransiya, Italiya, Janubiy Koreya, Turkiya, Bosniya va Gersogovina, Polsha, Qozog'iston, Tojikiston va Qirg'iziston mamlakatlari-ning yetakchi olimlari, turizm sohasi mutaxassislari ishtirokida "Buyuk ipak yo'li chorrahasida ziyorat turizmining renessansi" mavzusida xalqaro miqyosda konferensiya o'z ishini boshlagan edi. Konferensiya Samarcandda ziyorat turizmini tiklash, rivojlantirish bo'yicha amaliy, ilmiy va uslubiy takliflar ishlab chiqish lozimligi ta'kidlangan.

NATIJALAR

Samarcand viloyatida ziyorat turizmini rivojlantirish uchun olib borilayotgan bir qator chora-tadbirlar o'z samarasini bermoqda. Xususan, butun respublika hududlarida va xorijiy mamlakatlarda Samarcandning turizm salohiyati hamda Samarcand xalqaro aeroporti imkoniyatlarini namoyish etuvchi "Sa-marqand Yangi O'zbekistonning turizm darvozasi" targ'ibot kompaniyasi yo'lga qo'yiladi, turistlarga xizmat ko'rsatish uchun turizm axborot markazlari tashkil etiladi. BMT ning Butunjahob turizm tashkiloti Bosh Assambleyasining 2023-yildagi navbatdagi 25-sessiyasi Samarcand shahrida o'tkazilishi munosabati bilan tayyorgarlik ishlari ko'rildi. Samarcandni jahon sivilizatsiyasining muhim diniy o'choqlaridan biri sifatidagi imijini mustahkamlash, ziyorat turizmining ulkan salohiyatini yanada ommalashtirish, sayohat sanoatining ushbu qismida xizmat ko'r-satishni diversifikatsiya qilish, ziyorat turizmi eksport hajmini oshirish uchun bir qancha ishlar amalga oshirildi. Jumladan, viloyatda jami 184 ta mehmonxona joylashtirish vositalari faoliyat olib borayotgan bo'lsa, shularning 181 tasi Booking.com saytida ro'yxatdan o'tgan. Bundan maqsad sayt foydalanuvchilariga ko'proq barqaror uy-joy variantlarini tanlash va barqaror rivojlanish yondashuvlari haqida kerakli ma'lumotlarini olish imkonini beradi.

"Butun dunyo imomi" hisoblangan Imom al-Buxoriyning Payariq tumaninidagi majmuasida 10 ming o'rinali masjid, 21 hektar maydonda ulug' ajdodlarimizning diniy merosi obyektlarini aks ettiruvchi tematik xiyobon, 3 ta mehmonxona va 24 ta oilaviy mehmon uylaridan, 3000 nafar ziyoratchilarga xizmat ko'rsatuvchi "Halol" standartiga ega umumiyligi ovqatlanish korxonalaridan iborat ziyorat turizmni majmuasi barpo etilmoqda va boshqa ziyoratgoh joylarida ham rekonstruksiya va yangilash ishlari olib borilmoqda va shu kabi islohotlar tufayli Samarqandda ziyorat turizmi yuksak rivojlanmoqda.

MUHOKAMA

Ziyorat turizmi bo'yicha jahon reytingida O'zbekiston so'nggi yillar ichida 34-o'rindan 9-o'ringa ko'tarilib oldi. Samarqandning madaniy merosi juda katta. Ayni paytda ziyorat turizmining o'z odoblari mavjud. Ulardan biri kiyinish odobi. Afsuski hozirgi kunda ko'pchilik turistlar, ayniqsa, Yevropalik turistlarning ushbu qoidalarga rioya qilmasliklariga ko'zimiz tushadi. Bu narsa, albatta, muqaddas ziyoratgohlarimizga nisbatan hurmatsizlik hisoblanadi. Lekin bu ularning madaniyati, turmush tarziga aloqador ekanligibi hisobga olgan holda, turistlarga ziyoratgoh odoblari tushuntirilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Samarqandda har bir ko'cha, suv havzasi o'z tarixiga ega va ayni paytda hali o'rganilmagan, obod etilmagan, e'tibordan chetda qolgan manzillar ham yo'q emas. Misol uchun, Samarqand viloyati Oqdaryo tumani Yangiyo'rg'on qishlog'idagi Abdulla Ansor Ota ziyoratgohi va Qo'lton qishlog'idagi Oshiq Ota ziyoratgohlari shular jumlasidandir. Bu yerlarda buyuk insonlarning qabri joylashganligiga qaramay, ushbu ziyoratgohlar haqida faqatgina mahalliy aholi biladi va tashrif buyuradi. Agar mazkur ziyoratgohlarga ham e'tibor berilganda, bu narsa yurtimizga sayyohlar oqimini yana ham ko'paytirgan va buyuk bobokalonlarimizning ruhlari shod bo'lgan bo'lar edi. Bunday qarovsiz, chetda qolgan ziyoratgohlar nafaqat Samarqandda, balki yurtimizning boshqa joylarida ham bo'lishi mumkin. Agar ular topilib, obod qilinganda, davlatimizda ziyorat turizmni salohiyati yana ham oshgan bo'lardi.

XULOSA

Ko'p ming yillik tarixga ega bo'lgan Samarqand bugun haqiqiy turizm markaziga aylanib boryapti. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, yaqinda The Times nashri 2023-yilda dunyoning borish tavsiya etilgan 13 ta joyi ro'yxatini e'lon qildi va bu ro'yxatda O'zbekiston va Samarqand ham mavjud. Unikal tarixiy salohiyatidan kelib chiqib, ziyorat turizmining jozibadorligi oshirishga alohida urg'u qaratilmoqda. Ziyorat bu shunchaki sayohat emas, bu o'zligingni anglash uchun imkoniyat, ruhiy poklanishga, umid, duo va istaklar ijobatini tilash, iymonga eltuvchi yo'l

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.<https://cyberleninka.ru/article/n/samarqand-viloyati-turistik-salohiyatining-tahlili/viewer>
- 2.<https://xs.uz/uz/post/samarqandning-turizm-salohiyati-ulkan-manzillari>
- 3.<https://zarnews.uz/uz/post/ozbekistonda-ziyorat-turizmi-uchun-katta-imkoniyat-bor>
- 4.Turizm: nazariva va amaliyot. —T.: «Barkamol fayz media»
- 5.nashriyoti, 2018,400 bet
- 6.<https://uzbekistan.travel/uz/o/samarqand-viloyati/>
- 7.[https://fayllar.org/i-bob-ziyorat-turizmi-obyektlarining-nazariy-tahlili.html](https://m.kun.uz/uz/news/2022/11/01/xalqaro-ziyorat-turizm-haftaligi-boshlandi-asosiy-tadbirlar-samarqand-shahrida-bolib-otmoqda) <https://www.samdu.uz/uz/news/9861> Usmanov M.R. Turizm geografiyasi: o_quv qo_llanma. — Samarqand, «SamDU», 2020. 281 b Turizm (Sayyohlik): O'quv qo'llanma / T. Xoldarov, X. Tulenova; O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'limi vazirligi,
- 8.O'rta-maxsus kasb-hunar ta'limi markazi. – T.: «IqtisodMoliya», 2016. – 144
- 9.<https://tourquality.uz/uz/press-center/news/1323/>